

Talabalarimiz “Students Cup” tanlovi va TECHNOWAYS marafonida g’olib bo’lishdi.

□IT Park tomonidan talabalar o’rtasida tadbirkorlikni va startap ekotizimini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan “Students Cup” tanlovida Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti talabalaridan tashkil topgan “NovaRobotics” jamoasi o’zining “NovaAssistant” loyihasi bilan birinchi sovrinli o’rinni egalladi va 15 000 AQSh dollari miqdoridagi pul mukofotiga ega bo’ldi.

□Bundan tashqari, ushbu jamoa O’zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi tomonidan tashkil etilgan TECHNOWAYS texnologik rivojlanish marafonida o’zlarining NovaMini loyihasi bilan qatnashib, birinchi o’rinni egalladi va 30 million so’m miqdoridagi pul mukofotiga ega bo’ldi.

□Iqtidorli talabalarimizni ushbu g’alaba bilan muborakbod etamiz va kelgusi ishlarida katta zafarlar tilab qolamiz!

□Talabalarimiz – faxrimiz!